



KASBGA TAYYORLASH JARAYONIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV-NUTQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Sh.U.Nizamova

Qo‘qon davlat universiteti PhD, dotsenti

ORCID: 0009-0006-3713-9884

E-mail: nizamovashahnoza794@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ-nutqiy kompetentligini rivojlantirish muammolari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Kommunikativ-nutqiy kompetentlik pedagogning kasbiy tayyorgarligida yetakchi tarkibiy komponent sifatida talqin etilib, uning mazmuniy, tuzilmaviy va funksional xususiyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotda mazkur kompetentlikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari aniqlanib, oliy pedagogik ta‘lim jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik shart-sharoitlar, metod va ta‘lim texnologiyalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ-nutqiy kompetentlik, nutq madaniyati, boshlang‘ich ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik muloqot, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация: В статье с научно-педагогических позиций проанализированы проблемы развития коммуникативно-речевой компетентности будущих учителей начальных классов. Коммуникативно-речевая компетентность рассматривается как ведущий структурный компонент профессиональной подготовки педагога, обоснованы её содержательные, структурные и функциональные характеристики. В ходе исследования определены педагогические механизмы формирования данной компетентности, а также научно обоснованы эффективные педагогические условия, методы и образовательные технологии, направленные на развитие культуры речи в системе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: коммуникативно-речевая компетентность, культура речи, начальное образование, будущий учитель, педагогическое общение, профессиональная подготовка.

Abstract: This article examines the issues of developing the communicative and speech competence of future primary school teachers from a scientific and pedagogical perspective. Communicative and speech competence is conceptualized as a leading structural component of a teacher’s professional training, and its content-related, structural, and functional characteristics are substantiated. The study identifies pedagogical mechanisms for the formation of this competence and scientifically justifies effective pedagogical conditions, methods, and educational technologies aimed at enhancing speech culture within the system of higher pedagogical education.

Keywords: communicative and speech competence, speech culture, primary education, future teacher, pedagogical communication, professional training.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati nafaqat mutaxassisligiga oid bilimlariga, balki yuksak darajadagi kommunikativ va nutqiy salohiyatga ega bo'lishini ham talab etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'qituvchining og'zaki nutqi ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajaruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ-nutqiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi pedagog kadrlar tayyorlash tizimida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari jihatlari haqida so'z borib, bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri, ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish jihatlari hamda samaradorligi masalalariga qaratilgan. Bu borada qator yetakchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga tayandik.

Kommunikativ-nutqiy kompetentlik tushunchasining mohiyati

Kommunikativ ko'nikmalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bir qator yangi ilmiy asoslar diqqatimizni tortadi. Bu komponentlar lingvistik, interaktiv, pragmatik, sotsial-madaniy, emotsional va reflektiv jihatlarni o'z ichiga oladi. Quyida shular haqida kengroq ma'lumotlar beriladi. Mazkur komponentlar respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida asosiy tushuncha sifatida o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilib, mazmun va mohiyat bolalarga berilayotgan bilimlarga singdirilmoqda. Boisi respublikamizda zamonaviy oliy ta'lim ham murakkab islohotlar jarayonini boshidan kechirmoqda.

Bu ta'lim mazmunini takomillashtirish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashga qo'yilayotgan bugungi kunning sezilarli darajada ortib borayotgan talablariga javob beradigan ta'lim-tarbiya ishlarining eng samarali shakl va usullarini doimiy izlashda namoyon bo'lmoqda.

Xususan, Rossiya psixologlaridan N.V.Kuzmina, V.Slasenin, F.N.Gonobolin, O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur hislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan [6;97].

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetentlik shaxsning ijtimoiy-muloqot jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Nutqiy kompetentlik esa til vositalaridan to'g'ri, aniq, mantiqli va maqsadga muvofiq foydalanish malakasini anglatadi. Nutq - insonlarning til orqali bir - birlari bilan muomala va aloqa qilish usulidir. Inson nutq yordamida o'zining fikri, xis-tuyg'ulari,

mayl va istaklarini boshqalarga aytib beradi va boshqalarning fikrlarini, xoxish va istaqlarini anglab oladi. Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash insonning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr almashuviga xizmat qiladi [4;52].

Psixolog olim V.A.Kan-Kalik qobiliyatni tadqiq qilib shunday yozgan edi. “Pedagoglik ishi o‘z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi - o‘qituvchi shaxsining o‘quvchi shaxsiga ta’siri amalga oshiriladi [1;171]. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun kommunikativ-nutqiy kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- **lingvistik komponent** (til me’yorlarini bilish);
- **nutqiy komponent** (og‘zaki va yozma nutqni ravon ifodalash);
- **ijtimoiy-psixologik komponent** (o‘quvchi shaxsini tushunish va muloqotga kirisha olish);
- **pedagogik komponent** (didaktik muloqotni tashkil eta olish) [2;67].

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivoji o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kommunikativ-nutqiy kompetentlikni rivojlantirish zarurati

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi uchun dastlabki va eng muhim davr hisoblanadi. O‘qituvchining nutq madaniyati, so‘z boyligi, talaffuzi va muloqot uslubi o‘quvchilarning til kompetensiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida:

- pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish;
- nutqiy xatolarning oldini olish;
- notiqlik va ta’sirchan nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [3;98].

Kommunikativ-nutqiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ-nutqiy kompetentlik samarali rivojlanishi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhimdir:

- o‘quv jarayoniga kommunikativ yo‘naltirilgan topshiriqlarni joriy etish;
- interfaol metodlar (munozara, rolli o‘yinlar, debatlar)dan foydalanish;
- nutq madaniyatiga oid maxsus mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil nutqiy faoliyatini rag‘batlantirish [5;125].

Fikrimizcha, kommunikativlik – muloqot qila olishlik, o‘zgalar bilan muloqotga kirishuvchanlik qobiliyatidir. Bu qobiliyat o‘qituvchining o‘z fikrini aniq va tushunarli tarzda jamoaga yetkazib berishida ahamiyatli hisoblansa, o‘quvchilarida ham kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish: o‘zgalarni tushuna olish, o‘z-o‘zini anglash, vaziyatni to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur shart-sharoitlar pedagogik ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ-nutqiy kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu kompetentlikni shakllantirish ta'lim jarayonida maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Kommunikativ-nutqiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning nutqiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Izbosarova Z.A. 'Structural components of the development of communication skills of future primary school teachers', // *Inter education & global study*, (5), (2024). – pp. 168–176. (In Uzbek).
2. Abdullaeva Q. *Pedagogik kompetentlik asoslari*. – T.: Fan, 2020.
3. Jo'raev R.X. *Pedagogik mahorat va nutq madaniyati*. – T.: O'qituvchi, 2019.
4. Muhammadjonova L. *Ritorika*. – T.: Innovatsiya, 2019.
5. Husanboyeva O. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. – T.: Innovatsiya, 2021.
6. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya*. – M.: Logos, 2018.
7. Umarov, B. (2018). *Ibn Sino pedagogik merosida ta'lim va tarbiya muammolari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
9. Wells, G. (1999). *Dialogic Inquiry: Toward a Sociocultural Practice and Theory of Education*. Cambridge University Press.
10. Xolmatova, Z., & Yusupova, D. (2022). O'zbek milliy kommunikativ an'analari va zamonaviy pedagogik notiqlik sintezi. *O'zMU xabarlari*, 1(4), 112–121.
11. Yo'ldosheva, M. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy kompetentligini oshirishda integrativ yondashuv. *Pedagogika va psixologiya*, 2(1), 67–78.
12. Kvintilian, M. F. (I asr). *Notiqni tarbiyalash to'g'risida* [Institutio Oratoria]. (Tarj. H. E. Butler). Loeb Classical Library, 2001.